MASOFAVIY TA’LIM SHAROITIDA O‘QUV MOTIVLARINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Toshqo‘ziyeva Dildora Shukurjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti, Ijtimoiy psixologiya.
Etnopsixologiya ixtisosligi 1-kurs tayanch doktaranti

Annotatsiya:

Ushbu maqolada masofaviy ta’lim sharoitida o‘quv motivlarining shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar tahlil qilingan. O‘quv motivatsiyasining ta’lim samaradorligidagi o‘rni, ichki va tashqi motivlarning xususiyatlari hamda masofaviy ta’lim muhiti bilan bog‘liq psixologik omillar yoritilgan. Shuningdek, talabalarning o‘quv faoliyatini faollashtirish va motivatsiyasini oshirishning samarali usullari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *masofaviy ta’lim, motivatsiya, o‘quv motivlari, ijtimoiy-psixologik omillar, talaba, ta’lim samaradorligi, ichki motivatsiya*.

KIRISH

Bugungi zamonaviy va axborot texnologiyalari rivojlanayotgan davrda ta’lim tizimi oldida raqobatbardosh, mustaqil fikrlovchi va ijodkor mutaxassislarni tayyorlash vazifasi turibdi. Ushbu maqsadga erishishda talabalarning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan qiziqishi va intilishini ta’minlovchi motiv va motivatsiya muhim omillardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida masofaviy ta’lim tizimining muhim tarkibiy qismiga aylandi. Ushbu ta’lim shakli talabalarga geografik joylashuv, vaqt va boshqa cheklovlardan qat’iy nazar bilim olish imkoniyatini yaratmoqda.

Biroq masofaviy ta’limning samaradorligi nafaqat texnologik imkoniyatlarga, balki ta’lim oluvchilarning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan munosabati va motivatsiyasiga bog‘liqdir. Psixologik tadqiqotlarda motivatsiya shaxs faoliyatining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin etiladi. O‘quv motivlari esa bilim olish jarayonini rag‘batlantiruvchi ichki ehtiyojlar va tashqi omillar majmuini ifodalaydi. Masofaviy ta’lim sharoitida talabaning mustaqilligi ortishi bilan motivatsiyaning ahamiyati yanada kuchayadi. Motivatsiya tushunchasi psixologiya fanida turli ilmiy maktablar tomonidan keng o‘rganilgan. A. Maslou ehtiyojlar iyerarxiyasi nazariyasida inson faoliyatining asosida turli darajadagi ehtiyojlar yotishini ta’kidlagan. Deki va Ryanning o‘z-o‘zini belgilash nazariyasiga ko‘ra, ichki motivatsiya shaxsning avtonomligi, kompetentligi va ijtimoiy aloqadorlik ehtiyojlari qondirilganda rivojlanadi. Ta’lim faoliyatida motivlar ikki asosiy guruhga ajratiladi: ichki va tashqi motivlar. Ichki motivlar bilim olishga qiziqish, yangi bilimlarni egallashdan qoniqish hosil qilish bilan bog‘liq bo‘lsa, tashqi motivlar baho olish, diplomga ega bo‘lish yoki ijtimoiy e’tirofga erishish kabi omillar bilan belgilanadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, uzoq muddatli va barqaror o‘quv faoliyatini aynan ichki motivlar ta’minlaydi. Masofaviy ta’limda elektron platformalar, onlayn

konferensiyalar va raqamli ma’lumotlar asosiy o‘quv vositalari hisoblanadi. Ushbu vositalarning qulayligi va funksionalligi talabalarning o‘quv jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Albatta, shuni e’tibordan qochirmaslik kerakki, texnik jihatdan muammolar mavjud bo‘lsa, bu ham motivlarga ta’sir qiladi. Texnik muammo va uzilishlar ish samaradorligiga yetarlicha salbiy ta’sir qiladi va o‘z-o‘zidan motivatsiyaning pasayishiga xizmat qiladi. Masofaviy ta’lim samaradorligida pedogog bilan muntazam aloqa muhim o‘rin egallaydi. Pedagogning tezkor fikr-mulohazalari, rag‘batlantiruvchi yondashuvi va psixologik qo‘llab-quvvatlashi talabalarda o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi. Muloqotning yetarli darajada tashkil etilmasligi esa o‘quv faoliyatiga qiziqishning susayishiga olib keladi. Oila a’zolari, tengdoshlar va ta’lim jamoasi tomonidan ko‘rsatiladigan ijtimoiy yordam talabalarning motivatsiyasini saqlab qolishda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, masofaviy ta’lim sharoitida ijtimoiy izolyatsiya hissining oldini olish uchun guruhiy topshiriqlar va hamkorlikdagi faoliyatlarni tashkil etish muhimdir.

Masofaviy ta'lim talabalardan mustaqil rejalashtirish, vaqtni boshqarish va o‘z faoliyatini nazorat qilishni talab qiladi. Ushbu ko‘nikmalarning rivojlanganligi motivatsiya darajasiga bevosita ta'sir ko‘rsatadi. O‘zini boshqara oladigan talabalar o‘quv jarayonida yuqori natijalarga erishadilar. Masofaviy ta’limda motivatsiyani qo‘llab-quvvatlash uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masofaviy ta’lim sharoitida o‘quv motivlari ta’lim samaradorligini ta’minlovchi muhim psixologik omillardan biridir. Motivatsiyaning rivojlanishi talabaning individual xususiyatlari, ijtimoiy muhiti, pedogog bilan munosabatlari va ta’lim jarayonining tashkil etilishiga bog‘liq. Shu sababli masofaviy ta’lim tizimini takomillashtirishda motivatsion mexanizmlarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zarur. O‘quv motivatsiyasi talabaning ta’lim jarayonidagi faolligi va akademik muvaffaqiyatini belgilovchi muhim psixologik omildir. Ta’lim jarayonida ichki motivatsiyani rivojlantirish, mustaqil fikrlashni qo‘llab-quvvatlash va qulay psixologik muhit yaratish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 1.Maslow A. H. *Motivation and Personality*. New York: Harper & Row, 1970.
2. Deci E. L., Ryan R. M. *Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior*. New York: Plenum Press, 1985.
3. Rogers C. R. *Freedom to Learn*. Columbus: Merrill Publishing Company, 1983.
4. Реан А.А. Психология личности. – СПб.: Питер, 2018.
5. Немов Р.С. Психология. – М.: Владос, 2016.
6. Зимняя И.А. Педагогическая психология. – М.: Логос, 2019.
7. Turg‘unov S.T. Ta'lim menejmenti. – Toshkent, 2020.
8. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2019.